HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

“TURKISTON TARAQQIYPARVARLARI MEROSI: TARIXIY TAJRIBA VA MILLIY O‘ZLIK”

Tojiboyeva Fotimaxon Akmalxon qizi
Namangan davlat pedagogika
instituti tarixiy va falsafiy fanlar kafedrasi
ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitish metodikasi
(Ma’naviyat asoslari)yo’nalishi M.IGF-AU-25 guruh magistri
tojibayevafotima@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning ohiri va XX asr boshlarida Turkistonda kelgan ijtimoiy-madaniy jarayonlar hamda jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Turkiston o‘lkasining ilm-fan va texnika taraqqiyoti borasida Yevropa davlatlaridan ortda qolishi, mustamlakachilik siyosati, savodsizlik va jaholat muammolari ilg‘or ziyolilarni ma’rifiy islohotlar yo‘liga boshlagani yoritib beriladi. Jadid ma’rifatparvarlari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon va boshqalarning ta’limni isloh qilish, yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish hamda milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarini targ‘ib etishdagi xizmatlari ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: jadid, taraqqiyot, mustamlakachilik, jaholat, ziyolilar, milliy o’zlik, maktab, ilm-fan.

Аннотация: В данной статье анализируются социокультурные процессы, происходившие в Туркестане в конце XIX и начале XX веков, а также формирование и развитие движения джадидов. Подчеркивается, что отсталость Туркестанского региона от европейских стран в научно техническом развитии, колониальная политика, неграмотность и невежество подтолкнули прогрессивных интеллектуалов к пути образовательных реформ. Научным образом раскрываются заслуги просветителей-джадидов – Махмудходжи Бехбудия, Мунавваркори Абдурашидханова, Абдуллы Авлони, Абдурауфа Фитрата, Абдулхамида Чолпона и других в реформировании образования, организации новых школ, создании учебников и продвижении идей национальной идентичности.

Ключевые слова: джадид, развитие, колониализм, невежество, интеллектуалы, национальная идентичность, школа, наука.

Abstract: This article analyzes the socio-cultural processes that occurred in Turkestan at the end of the 19th and beginning of the 20th centuries, as well as the formation and development of the Jadid movement. It is highlighted that the backwardness of the Turkestan region from European countries in terms of scientific and technical development, colonial policy, illiteracy and ignorance led progressive intellectuals to the path of educational reforms. The merits of the Jadid enlighteners – Mahmudkhodja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cholpon and others in reforming education, organizing new schools, creating textbooks and promoting the ideas of national identity are revealed on a scientific basis.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Key words: modern, development, colonialism, ignorance, intellectuals, national identity, school, science.

XIX asrning ikkinchi yarmi Turkiston tarixida ijtimoiy-madaniy jihatdan murakkab va ziddiyatli bosqich sifatida namoyon bo‘ladi. Bu davrda Osiyo mintaqasi, xususan Turkiston o‘lkasi ilm-fan va texnika taraqqiyoti nuqtai nazaridan Yevropa davlatlaridan sezilarli darajada ortda qolgan edi.Qoloqlik va jaholat, o’lka aholisining ayanchli ahvoli Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi va bunday fojiali hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish haqida o’z zamonasining ilg’or ziyoli qatlamlarida fikr mulohazalar paydo bo’la boshlagan davri bo’lgan. Turkistondagi ma'rifatparvarlikning rivojlanishiga Qrim, Tatariston, Ozarbayjondan kirib kelgan ilg'or g'oyalar ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Turkistonda bu ilg'or g'oyalarni targ'ib qilish zarurligini anglab etgan ziyoli kishilar jadid ma'rifatparvarlari edilar. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkiston tarixida «jadidlar» nomi bilan atalgan ma’rifatparvar ziyolilar zulm natijasida o’lka xalqining savodsizlik, qashshoqlik, jaholatga mahkum bo’lganligini teran anglab etdilar.Ona Vatanga muhabbat, el-yurtga beminnat xizmat qilib, ozod, erkin va farovon jamiyat barpo etish taraqqiyparvarlarning eng ulug‘ orzusi bo‘lgan. Munavvar Qori Abdurashidxon o’g’li, Mahmudxo’ja Behbudiy, Ubaydulla Xo’jaev, Mustafo Cho’qaev, Toshpo’lat Norbo’tabekov, Abdulla Avloniy, Ahmad Zakiy Validiy To’g’on, Turor Risqulov, Abdurauf Fitrat, Sultonbek Xo’janov, Miryokub Davlatov va boshqa milliy harakatga boshchilik qilgan taniqli ma’rifatparvar, jamoat va siyosiy arboblar bor edi. Ular jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tizimini isloh qilish, ta’lim va fanni rivojlantirish orqali dunyoviy, demokratik jamiyat barpo etishni o’z oldilariga maqsad qilib qo’ydilar. Bu musulmon xalqlarni dunyo sivilizatsiyasi, xususan Yevropa madaniyatiga oshno etishning o’ziga xos yo’li edi. Bu yo’l shubhasiz, milliy va ma’naviy qadriyatlardan voz kechmay, hech qanday zo’rliksiz, sekin-asta olib boriladigan o’zgarishlar, bundan keyinga taraqqiyotga xalaqit beruvchi eskirgan aqida va xurofotlardan tozalanishlar yo’li edi. Vatanni taraqqiy topgan davlatlar safiga qo‘shishning yo‘li – maorifni isloh qilishda, deb bilgan jadidlar bu yo‘lda astoydil bel bog‘lab xizmat qilgan. Taraqqiyparvarlar xalqni zamona ilm-fanini o‘zlashtirish uchun yangi usulda ta’lim olishga da’vat etgan. Jadid ma’rifatparvar Alixonto‘ra Sog‘uniy “Turkiston xalqini “o‘lim uyqusidan uyg‘otish”ning yo‘li – uni zamonaviy ilm-fan, milliy g‘urur bilan qurollantirish, ona tilini jon o‘rnida asrashda”,[1] deb, yoshlarni ma’rifatga chorlagan. Yangi usulda dars berish[2] eng qulay va ma’qul tartib bo‘lib, amaliy sinovda isbotlangan edi. Ayni zamonda taraqqiyparvarlar barcha yoshlarni bilimli qilib, siyosiy boshqaruv sohasida ilmiy salohiyatga erishtirmaguncha mustamlakaga qarshi kurashib, suveren davlat qurib bo‘lmasligini anglagan. Shuning uchun 4-6 yillik yangi usuldagi ta’limni joriy etib, til, o‘qish-yozish, arifmetika, Qur’on va hadisdan saboq bergan.Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M Mirziyoyev ta’kidlaydiki, …Behbudiy va Avloniy. Hamza va Munavvarqori, Fitrat va Cho’lpon, Abdulla Qodiriy va Usmon Nosir kabi minglab jadid bobolarimizni uyg’otdi. Ularning xalq erkinligi va saodati yo’lidagi ezgu fikr va ezgu so’z va ezgu amallari uchun ulkan ma’naviy omil bo’ldi” [3]. Bunday ilmiy meros va chuqur fikrlar jamlanmasiga jadidlarning ilmiy-falsafiy mazmundagi asarlari hamda jadidchilik g‘oyalarining bugungi kunda amalda qo‘llanilishi misol bo‘la oladi. Eski usul ta’lim tizimi bilan birga, Turkiston ziyolilari, ya’ni jadidlar yangi usul jadid maktablarini ochib, ta’lim sohasida keng miqyosda faoliyat yuritganlar. Dastlabki qadamni Ismoil Gaspirali qo’ygan. U 1893 yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo’lib, Buxoroda amir Abdulaxadni jadid maktabi ochishga ko’ndiradi. Bu maktab “Muzaffariya” nomi bilan ataladi. 1898 yilda To’qmada (Qirg’iziston) ham shunday maktab ochilgan. 1899 yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901 yilda Qo’qonda Saloxiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi jadid maktablarini tashkil qilganlar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar ham yaratganlar, jumladan, Saidrasul Aziziyining “Ustozi avval”

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

(1903),Munavvarqorining “Adibi avval” (1907), va Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim” (1912) darsliklari alohida e’tiborga molikdir. Jadid ma’rifatparvarlarining xalqni jaholatdan chiqarish va ma’naviy yuksaltirish yo‘lidagi faoliyati asosan uch muhim yo‘nalishda namoyon bo‘lgan: 1. Jadid ma’rifatparvarlari zamonaviy ta’lim tizimini joriy etish maqsadida yangi usuldagi maktablar sonini ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratdilar. Bu maktablarda o‘quv jarayoni ilg‘or pedagogik usullar asosida tashkil etildi. 2. Iste’dodli va bilimga chanqoq yoshlarni xorijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborish orqali millat kelajagi uchun yetuk mutaxassislar tayyorlashga harakat qildilar. 3. Turli ma’rifiy jamiyatlar tashkil etish, matbuot nashrlarini yo‘lga qo‘yish hamda ziyolilarni birlashtiruvchi kuchli ijtimoiy-siyosiy guruhni shakllantirish orqali xalq ongini uyg‘otishni maqsad qildilar. Shu dasturni amalga oshirish borasida Maxmudxo’ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jayev, Abdulla Avloniy, Abdulxamid Cho’lpon, Polvonniyozhoji Yusupov, Bobooxun Salimov, Xudoybergan Devonov [4] va boshqa ziyolilar jonbozlik ko’rsatishdi. Yangicha o’qitish usuli musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy va diniy ta’lim berish dasturi asosida amalga oshirildi. Ushbu dasturga ko’ra, maktablarda ta’lim ikki bosqichga bo’lingan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb ataladi va uning davomiyligi 4 yilni tashkil etadi. Ushbu bosqichni tugatgan shogirdlar eski maktabda 10 yil o’qiganlardan yaxshiroq savodga ega bo’lishgan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tamomlagan shogirdlar arabcha, forscha va turkiy tilda erkin so’zlashib, rus tilida ham gaplasha olishgan. Jadid taraqqiyparvarlari tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari eski maktablardan keskin farq qilar edi, chunki ularning darsxonalarida parta, doska, stol va stullar mavjud bo’lgan. Mazkur maktablar o’qitish uslublari bilan farqlanib, “usuli savtiya” ya’ni tovush usulidan foydalanishgan va o’qish va yozish birga o’rgatilgan. Shuningdek, yangi maktablarda arifmetika, tabiatshunoslik, geografiya, grammatika kabi fanlar arab va fors tillarida yangi darsliklar asosida o’qitila boshlagan. Jadidlarning yana bir muhim fazilati shundaki, ularning ko’pchiligi ta’lim mazmuniga yangicha yondashgan holda o’zbek tilida darslik va o’quv qo’llanmalarini yaratishgan va ushbu asarlari orqali o’z uylarida maktablar ochib, bolalarga ta’lim-tarbiya berishgan.Ma’rifatparvarlarning qarashlarida milliy o‘zlikni anglash, ma’rifat bilan ozodlikka erishish va mustaqil tafakkurli avlodni tarbiyalash yo‘lidagi fidokorona kurash sifatida ifodalaydi.Jadidshunos olim R.Sharipovning fikricha, “Jadid ziyolilari o‘z oldida turgan asosiy vazifa kelajakda o‘zbek xalqini fojiali oqibatlarga olib borishi mumkin bo‘lgan ruslashtirish siyosatiga qarshi kurashish, yosh avlodda milliy til, tarix va madaniyatga hurmat tuyg‘usini tarbiyalash, milliy urf – odatlar va san’at turlarini saqlab qolish va yaqin kelajakda amalga oshishi lozim bo‘lgan mustaqillik haqidagi orzularni yoshlar shuuriga singdirish edi”[5]. Ularning asosiy maqsadi – xalqni jaholat, qoloqlik va mustamlakachilik siyosati ta’siridan ozod etish edi. Sharipov ta’kidlaganidek, jadidlar ruslashtirish siyosatiga qarshi mafkuraviy kurash olib borib, milliy o‘zlikni saqlashni, yosh avlodda o‘z tili, tarixi va madaniyatiga hurmat tuyg‘usini shakllantirishni eng muhim vazifa deb bildilar. Ular ta’lim-tarbiya, matbuot, teatr, adabiyot va san’at vositasida milliy g‘urur va mustaqillik g‘oyalarini xalq ongiga singdirishga harakat qildilar. Shu jihatdan, jadidchilik harakati nafaqat ma’rifiy, balki siyosiy ruhiy uyg‘onish harakati ham bo‘lgan. Ularning faoliyati keyinchalik o‘zbek xalqining milliy mustaqillik orzulariga zamin yaratdi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Qurbonov M. Milliy tarbiya. Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. – T.: Ma’naviyat, 2007.
2. Bobrovnikov I.I. Russko-tuzemnыye uchiliщa, mektebы I medresы Sredney Azii. S. -Peterburg-1913. Str.181.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. Toshkent.: “O’zbekiston”, 2021 yil, 464 bet.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

4. Sayyora Samandar, Umid Bekmuhammad “Xorazm jadid namoyandalari: hayoti, faoliyati va adabiy merosi” (Monografiya) “Milleniumus print” nashriyoti Urganch 2024. 13 b.
5. Шарипов Р. Жадид адабиётида янгиланиш, ислоҳот ва мустақиллик учун кураш ғояларининг акс этиши. Т.: 2023. –Б.30..